

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 16 169,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 109,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	13 841,7	16 169,3	107,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 401,2	15 679,8	107,1
mahsulotlarga sof soliqlar	440,5	489,5	105,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 401,2	15 679,8	107,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5 367,2	5 875,9	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 513,7	4 126,5	108,9
sanoat	2 696,5	3 176,6	108,3
qurilish	817,2	949,9	110,8
xizmatlar	4 520,3	5 677,4	110,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	954,8	1 325,3	129,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	470,6	588,0	114,1
boshqa xizmat tarmoqlari	3 094,9	3 764,1	103,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 675,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida
aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
(ming so'mda)



**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,8	97,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3,2	3,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,0	37,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26,2	26,4
sanoat	20,1	20,3
qurilish	6,1	6,1
xizmatlar	33,8	36,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,1	8,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,7
boshqa xizmat tarmoqlari	23,2	23,9




2024- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,5 % ni, sanoat tarmog'i 20,3 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 36,1 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,5 %), sanoatda – 108,3 % (20,3 %), qurilishda – 110,8 % (6,1 %), xizmatlar sohasida – 110,1 % ni (36,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 129,0 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,1 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (23,9 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,1 % va sanoat – 108,8 % qayd etildi..

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 10 710,8 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 9 237,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 68,3 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 68,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

